

Vozrojdeniye oroli: sanoat, tabiatni muhofaza qilish va Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish



Loyiha amalga oshiriladigan davlat:
O'zbekiston

Loyiha muddati: 2021-yil sentabr – 2024-yil avgust

Grant oluvchi: Oksford universiteti, Buyuk Britaniya

Hamkorlar: Fanlar akademiyasi qoshidagi Zoologiya instituti, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Turizm va madaniy meros vazirligi, Sayg'oqni saqlash alyansi, "Uz-Kor Gas Chemical" QK MChJ, "The Pearl Group" MChJ.

Byudjet: £399,326

Mas'ul shaxs:
Dr Joseph Bull

Elektron pochta:
joseph.bull@biology.ox.ac.uk

Facebook:
[ResurrectionIslandProject](https://www.facebook.com/ResurrectionIslandProject)

Web-sahifa:
www.darwininitiative.org.uk
(28-003)

Loyiha asosi

Sobiq Orol dengizi markazida joylashgan Vozrojdeniye orolining noyob biologik xilma-xilligi orol uzoq yillar davomida quruqlikdan uzilib qolganda gullab-yashnagan o'simliklar va umurtqali hayvonlarning ikki yuzdan ortiq turlarini o'z ichiga oladi. Mintaqada ekologik, sarguzasht va madaniy turizm uchun hali foydalanilmagan ulkan salohiyat mavjud. Yaqin o'tmishda dengizning qurishi va Sovet davriga oid qarovsiz harbiy bazaning foydalanishdan chiqarilishi olimlar uchun orolga kirish, shuningdek, resurslarni qazib olish imkoniyatini yaratdi. Bu esa o'z navbatida, orolning ekologik va madaniy qiymatini uning zaifligi bilan birga aniq namoyon qildi.

Atrof-muhitning o'zgarishi va inson faoliyati tufayli mintaqadagi bioxilma-xillik tez kamayib bormoqda. Bundan tashqari, biologik xilma-xillikka keng ko'lamli sanoat rivojlanishi tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda, biroq sanoatning biologik xilma-xillikka ta'sirini yumshatish uchun yetarli tushuncha va imkoniyatlar mavjud emas, hududiy va milliy hukumat tuzilmalari bunga erishishga intilmoqda.

Loyihaning maqsad va vazifalari

1. Turizmga aloqador (masalan, astronomik turizm, oilaviy mehmonxonalar), keyinchalik kengroq miqyosda amalga oshirish mumkin bo'lgan daromad olishning yangi manbalarini sinovdan o'tkazish orqali ishsizlik omillari bilan kurashish;
2. Vozrojdeniye orolida muhofaza etiladigan tabiiy hududni tashkil etish natijasida brakonyerlikka qarshi kurashish va turizmga zamin yaratish;
3. Biologik xilma-xillikka ta'sirni samarali yumshatish uchun texnik yordam ko'rsatish orqali sanoat infratuzilmasining vujudga kelishi mumkin bo'lgan zararini bartaraf etish.

